

KARYERA MUVAFFAQIYATIGA TA'SIR ETUVCHI SHAXSIY OMILLAR: MOTIVATSIYA VA QAT'IYAT

Ismanaliyeva Mohichexra Rustamovna

Kokand Universiteti Andijon filiali

Masofaviy ta'lim shakli psixologiya yo'nalishi

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17231445>

Annotatsiya: Ushbu tezisda karyera muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi shaxsiy omillar va motivatsiyaning qat'iyatligi to'g'risida. Zamonaviy mehnat bozori shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda shaxsning karyera muvaffaqiyatiga erishishi ko'plab omillarga bog'liqdir. Tashqi omillar – ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ta'lim sifati, mehnat bozori talablari bilan bir qatorda, ichki omillar – ya'ni shaxsiy xususiyatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ichki omillar ichida motivatsiya va qat'iyat karyera muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida ajralib turadi. Motivatsiya va qat'iyat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Yuqori motivatsiya shaxsni faoliyatga undasa, qat'iyat esa bu jarayonni barqaror va uzluksiz qiladi. Boshqacha aytganda, motivatsiya boshlang'ich turtki bo'lsa, qat'iyat uni uzoq muddat davomida qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu uyg'unlik karyera muvaffaqiyatining muhim psixologik asosi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Muvaffaqiyat, karyera, motivatsiya, qat'iyat, psixologik rivojlanishlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, shaxsiy va psixologik omillar

Kirish.

Psixologik tadqiqotlarda yuqori motivatsiyaga ega xodimlar ko'proq tashabbus ko'rsatishi, murakkab vazifalarni hal qilishda faolroq bo'lishi aniqlangan. Demak, motivatsiya shaxsning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvini belgilab beradi. Global mehnat bozori sharoitida karyera muvaffaqiyati nafaqat bilim va malaka bilan, balki shaxsning ichki omillari bilan ham belgilanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motivatsiya va qat'iyat yosh mutaxassislarning mehnat faoliyati, lavozim o'sishi va shaxsiy brendini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu sifatlar yetarli darajada rivojlanmaganda, hatto yuqori malaka ham kutilgan natijaga olib kelmasligi mumkin. Motivatsiya va qat'iyatning yosh mutaxassislar karyera muvaffaqiyatiga ta'sirini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari

1. Karyera muvaffaqiyatining psixologik nazariy asoslarini tahlil qilish.
2. Talabalar va yosh mutaxassislar orasida motivatsiya va qat'iyat darajasini aniqlash.
3. Ushbu sifatlar bilan karyera muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilish.
4. Motivatsiya va qat'iyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy adabiyotlarda qat'iyat shaxsning ijtimoiy va kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik resurs sifatida e'tirof etiladi. Qat'iyatli insonlar karyerada yuqori cho'qqilarga erishishda tashqi qiyinchiliklarga tez moslashib, o'z faoliyatini davom ettirishga qodir bo'ladilar. Motivatsiya – bu shaxsning maqsad sari intilishini faollashtiruvchi ichki kuch bo'lib, karyera muvaffaqiyatida hal qiluvchi omillardan biridir. Motivatsiya quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Maqsadni aniqlash va unga erishishga intilish – yuqori motivatsiyaga ega shaxslar aniq maqsadlarni belgilab, ularga yetish uchun zarur choralarni ko'radilar.

Kasbiy rivojlanishga qiziqish – o'z bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirishga intilish motivatsiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Ichki va tashqi rag'batlar uyg'unligi – moddiy manfaatlar bilan bir qatorda, shaxsiy o'sish, tan olinishi va professional qoniqish kabi omillar motivatsiyaning barqarorligini ta'minlaydi.

Psixologik tadqiqotlarda yuqori motivatsiyaga ega xodimlar ko'proq tashabbus ko'rsatishi, murakkab vazifalarni hal qilishda faolroq bo'lishi aniqlangan. Demak, motivatsiya shaxsning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvini belgilab beradi. **Qat'iyatning ahamiyati**

Qat'iyat (rezilyensiya) – bu qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizliklar va to'siqlar oldida ham maqsad sari intilishni davom ettirish qobiliyatidir. Qat'iyat karyera muvaffaqiyatida quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

Barqarorlik – stressli vaziyatlarda ham faoliyatni davom ettira olish.

Sabrlilik – uzoq muddatli maqsadlarga erishishda vaqt va kuchni oqilona sarflash.

Muvaffaqiyatsizlikdan saboq olish – xatolarni rivojlanish imkoniyatiga aylantirish.

A. Maslou (1943) tomonidan ishlab chiqilgan "ehtiyojlar ierarxiyasi" nazariyasiga ko'ra, shaxs karyera rivojida dastlab asosiy ehtiyojlarini (moddiy ta'minot, xavfsizlik), so'ngra yuqori darajadagi ehtiyojlarini (o'zini namoyon etish, ijtimoiy tan olinishi) qondirishga intiladi.

F. Gertsbergning ikki omilli nazariyasi (1959) motivatsiyani "rag'batlantiruvchi omillar" va "gigiyena omillari" orqali tushuntiradi. Rag'batlantiruvchi omillar – karyera yutuqlariga, bilimlarni rivojlantirishga undasa, gigiyena omillari – ish sharoitlari va maosh kabi tashqi omillarni qamrab oladi.

2. Qat'iyat (rezilyensiya) tushunchasi

Psixologiyada rezilyensiya shaxsning stress, muvaffaqiyatsizlik va qiyinchiliklarga moslasha olish qobiliyati sifatida talqin etiladi (Masten, 2001).

A. Bandura (1997) o'zining "o'z-o'ziga ishonch" nazariyasida qat'iyatning asosi sifatida shaxsning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi.

3. Karyera muvaffaqiyati bo'yicha tadqiqotlar

Judge & Bono (2001) tadqiqotlariga ko'ra, motivatsiya va qat'iyat yuqori bo'lgan xodimlarda karyera qoniqishi va muvaffaqiyat darajasi sezilarli yuqori bo'ladi.

Savickas (2013) tomonidan ishlab chiqilgan "Karyera konstruksiyasi nazariyasi"da shaxsning kasbiy yo'nalishi va muvaffaqiyatida ichki psixologik omillar, xususan motivatsiya va qat'iyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Xulosa

Karyera muvaffaqiyati ko'plab tashqi va ichki omillarga bog'liq bo'lsa-da, shaxsiy xususiyatlar – motivatsiya va qat'iyat uning poydevorini tashkil etadi. Motivatsiya shaxsni kasbiy maqsadlarga yo'naltirsa, qat'iyat bu maqsadlarga erishish jarayonida to'sqinliklarga bardosh berishni ta'minlaydi. Shu boisdan, shaxsiy rivojlanishda ushbu ikki sifatni shakllantirish va mustahkamlash karyera muvaffaqiyati uchun zaruriy shartlardan biridir. Karyera muvaffaqiyatiga erishishda tashqi sharoitlar bilan bir qatorda shaxsiy omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ularning ichida motivatsiya va qat'iyat shaxsning kasbiy faoliyatidagi asosiy psixologik resurslar sifatida ajralib turadi. Motivatsiya shaxsni maqsad sari undovchi kuch bo'lsa, qat'iyat esa bu jarayonda barqarorlik va izchillikni ta'minlaydi. Ushbu ikki sifatning uyg'unligi insonni qiyinchiliklar oldida bardoshli, o'z karyerasini ongli ravishda boshqaruvchi va kasbiy o'sishga doimo intiluvchi subyekt sifatida shakllantiradi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari ham shuni ko'rsatadiki, yuqori motivatsiya va qat'iyatga ega bo'lgan shaxslar karyera qoniqishi, professional yutuqlar va ijtimoiy tan olinishda nisbatan yuqori natijalarga erishadilar. Shunday ekan, kasbiy rivojlanishda ushbu omillarni

shakllantirish, ularga psixologik va amaliy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish karyera muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Baratov Sh.R., Olimov L. Y., Avezov O. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. ISBN: 978-9943-6169-4
2. Mazkur darslikda shaxs, faoliyat, motivatsiya va hissiy-irodaviy xususiyatlar kabi mavzular nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi.
3. Abdijabborova, Nazokat Maxmud qizi. "Psixologiyada motivatsiya va motivlarni o'rganish metodlari." Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi, 2024, 35(3), 87–90. 1. Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
4. Herzberg, F., Mausner, B., & Snyderman, B. B. (1959). The motivation to work. New York: John Wiley & Sons.